

“RAVSHAN” DOSTONINI O‘QITISH USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Abdixoliqova Mastona Raxim qizi

ToshDO‘TAU o‘qituvchisi

mastonauz@gmail.com

ORCID ID: 0000-0003-1164-1244

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10682610>

ARTICLE INFO

Received: 14th February 2024

Accepted: 19th February 2024

Online: 20th February 2024

KEYWORDS

Zamonaviy usullar, innovatsion yondashuv, texnologiya, “Ravshan” dostoni, “Piyola” metodi, “To‘rtinchisi ortiqcha”, metodi, “Klasster”, metodi, “Qahramonlar ruhiyatiga nazar” texnologiyasi.

ABSTRACT

Adabiy ta’limida interaktiv metodlar, axborot va zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish o‘quvchilarning fanni o‘zlashtirishida muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy axborot texnologiyalari izchillik bilan rivojlanib boryotgan davrda adabiy ta’limda ham yangi yondashuvlarga ehtiyoj seziladi, albatta. Ushbu maqolada ham xalq og‘zaki ijodi namunasi bo‘lgan “Ravshan” dostonini o‘qitishga doir yangicha yondashuvlar o‘rin olgan. Maqoladan ko‘zlangan maqsad maktab o‘qituvchilariga yengillik yaratish va o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga, tafakkurini mustahkamlashga, xalq og‘zaki ijodi namunalarini qiziqish bilan o‘rganishga undash. Maqoladan 7-sinf o‘quvchilarini o‘qitishda foydalanish mumkin. Bugungi kunda adabiyot o‘qitishda asosiy faollik, albatta, o‘qituvchining o‘zida bo‘lishi lozim. Bu orqali o‘qituvchi o‘quvchilarning ham faolligini ta’minlay oladi. Maqoladan ko‘zlangan maqsad shuki, tarixiy ildizlarimiz, qadriyatlarimiz, an‘analarimizdan darak beruvchi dostonlarimizni o‘quvchilarga samarali usulda yetkazib berishdir.

Kirish

Uzluksiz ta’lim tizimining umumta’lim maktablarida tashkil etiladigan ta’lim-tarbiya jarayonining sifatini, ta’lim oluvchining fanni va berilayotgan bilimni o‘zlashtirish darajasi, egallanayotgan bilim, mustaqil va tanqidiy fikrlashi, bilim, ko‘nikma, malakani, yangi va kutilmagan vaziyatlarda qo‘llay olishi uchun ta’lim beruvchiga, albatta, katta mas’uliyat yuklatiladi. Zamonaviy adabiyotning maqsadi barkamol va mustaqil fikrga ega bo‘lgan insonni tarbiyalashdir. Insonni har tomonlama barkamol, ma’naviy yuksak qilib tarbiyalashda xalq og‘zaki ijodi namunalarining o‘rni katta. Jahon talablariga mos keladigan darslarni tashkil etish, o‘quvchilarni ma’rifatli, yuksak ma’naviyatli, kreativ fikrlaydigan, bilimli va faol qilib tarbiyalash bugungi kundagi dolzarb vazifalarimizdandir. Maktab ta’limida bu vazifani aynan ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi bajarishi lozim. Adabiyot fanini o‘qitishda o‘quvchilarni



tahliliy va tanqidiy fikrlashga o'rgatadigan pedagogik texnologiyalar ishlab chiqishga e'tiborimizni qaratishimiz kerak. Hozir umumta'lim maktablarining adabiyot darslarida berilgan xalq og'zaki ijodi namunalarini o'qitish bilan bog'liq bo'lgan muammolar yechimiga oid takliflarimizni berib o'tamiz.

Asosiy qism

O'zbek xalqining o'zligini namoyon etuvchi, folklorshunos olim Omanulla Madayev ta'rifi bilan aytganda, xalq og'zaki ijodining "omadi kulgan janri" dostonlar hisoblanadi. Bu janr xususiyatlari haqida folklorshunos olimlar tomonidan ko'plab tadqiqotlar amalga oshirilgan va bu jarayon davom etmoqda. Xalq dostonlarini kitobxonlarga yetkazishda Viktor Jirmunskiy, Hodi Zaripov, Mahmud Zaripov va boshqalarning hissasi katta. Yozib olingan manbalar nafaqat xalqimizning o'tmishini, balki kelajakka ko'prik vazifasini o'taydi.

Biz xalq dostonlarini mutolaa qilar ekanmiz, asar qahramonlarining turli vaziyatlardagi holati, sinov - shartlardan mardona o'tishi bizga zavq bag'ishlaydi. Doston kitobxonni zeriktirmaydi, ortiqcha aqliy zo'riqishni ham talab qilmaydi. Biz unda nasr, nazm shakllarini ham uchratamiz, afsona, ertak janriga xos elementlarni ko'ramiz. Aynan xalq dostonlarini o'qitishda zamonaviy usullardan foydalanishimiz mumkin. Zamonaviy usullar o'quvchi faoliyatini faollashtirish va jadallashtirishga xizmat qiladi. Adabiyot darslarida zamonaviy usullardan foydalanish dars sifatini yaxshilaydi.

Amaldagi Davlat ta'lim standartlari talabi bo'yicha hozirgi darsliklarda maktablarimizning 5-6-sinflarida xalq og'zaki ijodi kengroq o'qitiladi. Darsliklarda maqol, ertak, topishmoq, xalq qo'shiqlari, latifa va askiyalar haqida keng ma'lumot beriladi. Undan maqsad ta'limning dastlabki bosqichlaridanoq o'zbek xalqining boy, madaniy merosi, milliy qadriyatlarini sifatida folkorning ijtimoiy-g'oyaviy mazmuni, janr xususiyatlari va shakllarini, urf-odat va marosimlari, ularni ifodalash, ijro etish jarayonlarini o'quvchi ong-shuuriga singdirish, ularni e'zozlash ko'nikma va malakalarini shakllantirishdan iborat.

Ikkinchi bosqichida xalq og'zaki ijodi namunalaridan faqat dostonlar o'qitish kiritilgan.

Dasturga 7-11-sinflarda "Kuntug'mish", "Ravshan", "Alpomish", "Rustamxon", "Go'ro'g'lining tug'ilishi" dostonlari kiritilgan.

Biz 7-sinf adabiyot darsligida berilgan "Ravshan" dostoniga to'xtalamiz.

7-sinf "Adabiyot" dasturida "Ravshan" dostonini o'rganish uchun jami 3soat ajratilgan. Birinchi soatda "Ravshan" dostonining yaratilish tarixi hamda o'zbek xalq dostonchiligida katta o'rin tutishi haqidagi nazariy ma'lumotlar berilib, ikkinchi soatda dostonidan berilgan parchani ifodali o'qib, uning uning mazmuni, asar qahramonlarini tashkil qilish ko'zda tutiladi.

Uchinchi soatda o'tmishda ota-bobolarimiz qanday an'analarga, urf-odatlariga rioya qilganliklari, doston voqealari turkiy xalqlar dostonchiligida keng tarqalgan an'analarga asosida yaratilganligi haqida ma'lumot beriladi. Asar qahramonlarining milliy va umuminsoniy qadriyatlariga amal qilish natijasida nimalarga erishganligi yoki aksincha holatlarini o'quvchilar tahlil qilishiga sharoit yaratish lozim. Tabiiyki, "Bu qanday amalga oshiriladi", - degan savol tug'iladi, albatta. Bu savolga javob topish uchun bir nechta usullarni ko'rib chiqamiz.


Har bir darsni boshlashdan oldin o'quvchilar diqqatini darsga jalb qilib olishimiz lozim. Buning uchun biz darsimiz mazmunidan kelib chiqqan holda "Piyola" metodidan foydalanamiz.



“Piyola” metodi

Ushbu metodni amalga oshirishimiz uchun bizga bitta piyola va 6 nafar ishtirokchi o‘quvchilar kerak bo‘ladi. O‘yin sharti shundan iboratki, o‘quvchilar aylana shaklida turib olishadi va birinchi o‘quvchi aylana ichiga turib, atrofidagi ishtirokchilarga har xil usulda qo‘lidagi piyolani berishi kerak bo‘ladi. Agar piyola uzatish holati takrorlanib qolsa yoki yangi usul topolmay qolsa o‘yin so‘ngida o‘sha ishtirokchi shart bajaradi. Bu shartlar quyidagicha bo‘lishi mumkin:

1. Siz rassomsiz va siz “Ravshan” dostoni asosida qanday shakl chizgan bo‘lar edingiz va nima uchun aynan shu shaklni chizardingiz?
2. Quyida berilgan maqollarni kerakli jumlar bilan to‘ldirib, davom ettiring!
O‘zga yurtningo‘z yurtni.....yaxshi.
Qarg‘a.....ko‘zini chuqimaydi.
Qazisan, - axirga tortasan.
..... yomon qopib gapiradi.



Yuqoridagi usul orqali o‘quvchilar mantiqqan fikrlaydi, milliy urf-odatimiz bo‘lgan choy uzatish marosimini ham esga oladi, qo‘shimcha shartlarni bajarish vaqtida esa zukkoliklari ham sinovdan o‘tkaziladi. Asosiysi bu metod orqali o‘quvchilar diqqatini darsga jalb qilib olamiz.


“O‘quvchilarni faollashtirish uchun savollar”

1.Xalq dostonlari boshqa janrlardan qanday farq qiladi?
2.Ravshanbekning Gulanorga munosabatini haqiqiy sevgi deyish mumkinmi?
3.Qahramonning: “Yor deyman-u, nomus-orga boraman”, - degan iqrorini izohlang.
4.Dostonda bozor qanday tasvirlangan? Bu tasvir qadimiy o‘zbek bozorining ruhini bera oladimi?
5. Doston qahramonining:”Aziz boshing oyog‘imga teng emas...”, - degan e‘tirofida manmanlik tuyg‘usi kuchlimi yoki o‘zbeklik g‘ururi?

Ushbu savollar orqali o‘quvchilarning bilimlari mustahkamlanadi va mustaqil fikrlari sinovdan o‘tkaziladi.



“Klasster” metodi asosida fikrlaringizni bayon eting



Ushbu metod orqali o‘quvchilar dostonga oid fikrlarini bayon etadi. O‘quvchilar doston nomini eshitishlari bilan dastlab tafakkur qilgan fikrlarini yozishadi va bu bilan biz o‘quvchilarni doston haqidagi fikr-mulohazalarini bilib olamiz. Metod so‘ngida o‘qituvchi ham doston haqida asoslovchi va yakunlovchi xulosalarini berib o‘tadi.

“To‘rtinchisi ortiqcha” metodi

Bu metodda guruhlariga kartochka tarqatiladi. Kartochkaning uch qatorida bitta doston qahramonlari va bitta qaysidir qatorida boshqa doston qahramonlari keltiriladi. Guruh a‘zolari qaysi doston qahramonlari ortiqcha ekanligini aniqlashi lozim.

1-guruh

1. Alpomish Barchinoy

2. Ravshan Zulxumor

3. Avazxon Xasanxon

4. Yunus pari Misqol pari

Boshqa guruhlariga ham shunday tartibda davom etadi.

“Qahramonlar ruhiyatiga nazar” texnologiyasi

Zulxumorga xususiyatlar misollar	xos tasviriga	Ravshanga xos xususiyatlar tasviriga misollar	Gulanorga xos xususiyatlar tasviriga misollar
Yasangan hurday, tishlari durday, ko‘zlari yulduzday, qoshlari qunduzday, lablari qirmizday, og‘izlari o‘ymoqday, lablari qaymoqday qiz.		Mard va jasur, or-nomus va xalq sha‘ni uchun kurashuvchi bahodir.	Yaxshi sur‘atli, shirin so‘zli, quralay ko‘zli, uzun bo‘yli, xushxayol, zehni tez, serfahm qiz.
...	

Shu tariqa davom etamiz, o‘quvchilar qahramonlarning o‘zlari mustaqil anglab yetgan xususiyatlarini aytishadi. Asar mazmunini o‘qib o‘rganish va qahramonlar timsolini tavsiflashga alohida e‘tibor qaratiladi. Shu yo‘l bilan birga o‘quvchilarga dasturda belgilangan nazariy tushunchalarni o‘rgatish adabiy tahlil darslarini tashkil etish orqali amalga oshirilsa, albatta, o‘z natijasini beradi.

Zamonaviy darslarga qo‘yilgan ijtimoiy-pedagogik shart-sharoitlar quyidagilar: izlanuvchan, inoq o‘quvchilar jamoasi, yaxshi darslik, ko‘rgazmali qurollar, texnika vositalari hamda yaxshi jihozlangan sinf xonalari, ijodiy ishlay biladigan va o‘z kasbi sirlarini yaxshi



egallagan, tegishli didaktik va metodik tayyorgarlikdan o'tgan o'qituvchi, yoqimli psixologik muhit, o'qituvchi va o'quvchi orasidagi munosabatning samimiy, o'zaro hurmatga, pedagogik hamkorlikka asoslanganligi kabilardan iborat.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, dars jarayonida zamonaviy usullarni unumli va o'z o'rnida qo'llash orqali ta'lim tizimidagi natijalar anchagina samarali bo'ladi. Bunday usullarning o'ziga xos xususiyatlari, vaqtning unumdorligini oshishi, ijobiy natijalar berishi, qolaversa, bir tomonlama dars o'tishdan cheklanishni taqoza etadi. O'qituvchi o'z ishida axborot texnologiyalari va zamonaviy usullardan foydalanishi o'quvchilarni mustaqil fikrlashga, dars davomida zerikmasdan faol ishtirok etishiga zamin yaratadi. Zamonaviy usullardan dars davomida o'rinli foydalanilsa kutilgan maqsadga erishiladi. Bunda o'qituvchi tomonidan ijodkorlik, tashabbuskorlik, bilimdonlik talab etiladi.

References:

1. Madayev O., Sobitova T. Xalq og'zaki poetik ijodi. –T.: 2010.
2. To'xliyev B., Niyozmetova R.va b. Til va adabiyot ta'limining zamonaviy texnologiyalari. – T.: Toshkent, 2011.
3. Q.Yo'ldoshev, B.Qosimov, V.Qodirov, J, Yo'ldoshebekov.7-sinf .adabiyot darsligi. T.:2017.
4. Muhamedova S,X., Abdullayeva M, D., Yuldasheva Sh, Sh., Eshmatova Y,B. O'zbek tili va adabiyoti ta'limida zamonaviy axborot texnologiyalari. – T.: 2018.
5. Husanboyeva Q., Niyozmetova R. Adabiyot o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma. – T.: Barkamol fayz media. 2018.
6. Niyozmetova R. Uzluksiz ta'lim tizimida o'zbek adabiyotini o'rganish metodikasi. Monografiya. – T.: Fan, 2007.
7. Rajabova I. Adabiyot darslarini interfaol usullarda tashkil etish. – T.: Tamaddun, 2010.
8. To'xliyev.B. Adabiyot o'qitish metodikasi. – T.: "Alisher Navoiy" nomidagi O'zMK, 2012.
9. Neil Selwyn. Education and Technology: Key Issues and Debates. – Continuum. New York, 2011.
10. Husanboyeva Q. Adabiyot o'qitish metodikasi va muammoli ta'lim. O'quv-metodik qo'llanma. – Toshkent: Innovatsiya-Ziyo,2022.
11. Djamaldinova Sh. Maktab adabiy ta'limida xalq og'zaki ijodi namunalarini muammoli metod asosida o'rganish//Phd ilmiy darajasini olish uchun yozilgan avtoreferat. – Toshkent, 2022.
12. www.google.com
13. www.ziyo.uz.com
14. www.ziyonet.uz
15. www.natlib.uz
16. www.book.uz
17. www.txt.uz
18. www.o'zbekadabiyoti.com
19. <http://ensiklopediya.uz>
20. <http://ziyouz.uz>